



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqib boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 2-aprel, № 63 (9234)

Payshanba

Saytimgizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI "BMT TURIZM" RAHBARI BILAN SAYYOHLIK SOHASIDAGI HAMKORLIKNING USTUVOR YO'NALISHLARINI MUHOKAMA QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda tashrif bilan bo'lib turgan "BMT Turizm" bosh kotibi Shayxa Nosir Al Novaysni qabul qildi.



O'zbekiston va BMTning ushbu ixtisoslashirilgan muassasasi o'rtasidagi ko'p qirrali va uzoq muddatli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Tashkilot rahbari O'zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yuksak baholadi. Sayyohlik infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xizmatlarni diversifikatsiya qilish bo'yicha izchil choralar amalga oshirilmoqda. Aviaqatnovlar geografiyasi kengaymoqda, yangi muzeylar tashkil etilmoqda, yirik madaniy tadbirlar muntazam o'tkazilmoqda. So'nggi 8-yilda yurtimizga kelgan

sayyohlar soni 6 barobar ko'payib, qariyb 12 million nafarga yetgani alohida qayd etildi. 2030-yilga qadar ularning sonini 20 millionga, turizmning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushini esa 7 foizga yetkazish rejalashtirilgan. O'zbekiston va "BMT Turizm" o'rtasidagi hamkorlik jadal sur'atda rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan ta'kidlandi. 2023-yilda Samarqand shahrida Tashkilot Bosh Assambleyasi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Xalqaro turizm akademiyasi tashkil etildi, yaqinda esa "Ipak yo'lida turizm" mavzusidagi ofisning ochilishi ko'rib o'tadi. O'zbekiston tashabbusi bilan BMT

Bosh Assambleyasining 2027-yilni Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili deb e'lon qilish to'g'risidagi rezolyutsiyasi qabul qilindi. Suhbat chog'ida tomonlar sheriklikni yanada rivojlantirish, jumladan, sayyohlik sohasida xalqaro huquqiy bazani takomillashtirish, qo'shma loyihalarni amalga oshirish, ekspertlik va texnik hamkorlikni kengaytirish, turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash niyatida ekanini qat'iy tasdiqladilar. O'ZA. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

MILLIY DENDROLOGIYA BOG'I ILM-FAN, AZALIY QADRIYATLAR VA EZGU NIYATLARNI UYG'UNLASHTIRADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 1-aprel kuni "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ko'chat ekish tadbirida ishtirok etib, Milliy dendrologiya bog'ini barpo etishga start berdi.

Dunyoning ekologik manzarasi murakkablashib borayotganiga ko'nikayotganlar bor. Bu boradagi muammolarni hal etishga har tomonlama harakat qilayotganlar qancha. Bu yo'nalishdagi urinishlarda xalqning qadriyatlarini va zamonaviy yondashuvlar uyg'unlashsa natija kutilganidek bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro ekspertlar O'zbekistonda izchilik bilan amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasini alohida e'tirof etmoqda. Bu shunchaki ko'chat ekish kampaniyasi emas, balki kelajak avlodlar uchun munosib yashash muhitini yaratishga qaratilgan strategik dasturligini ta'kidlashyapti. Prezidentimizning joriy yil 25-martda imzolangan "Yashil makon" umummilliy loyihasi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mazkur tizimni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Hujjat hududlarning nafaqat manzarali va dendrologiya bog'lari tashkil etilishi ta'kidlanadi. Bu hech muvoblag'asiz mamlakat ekologik xaritasida tub burilish yasaydi. Bu kabi ixtisoslashtirilgan bog'lar shunchaki dam olish maskani emas, balki shahar va qishloqlarimizda "tabiiy filtr" vazifasini o'taydi. Davlatimiz rahbari "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi tadbirda nutq so'zlar ekan, xalqimiz azal-azaldan Navro'z kunlarida, oilasida farzand tug'ilganda tomorqasiga, maydon va xiyobonlarga, yo'l chetlariga yaxshi niyat

bilan ko'chat qadab, gulu rayhonlar ekanini ta'kidladi. Ana shu ezgu qadriyatlar zamirida so'nggi besh yildan buyon "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilib, har yili 200 million tup ko'chat ekib kelinmoqda. Xalqimiz tafakkurida daraxt ekish oddiy mehnat jarayoni emas. Bu kelajakka qo'yilgan ma'naviy imzo sanaladi. Bu bilan "Yaxshidan bog' qoladi" degan ibratli maqsad farzandlar ongiga yanada mustahkam joylashadi. "Yashil makon" umummilliy loyihasi ana shu ko'hna qadriyatlarimizning zamonaviy islohotlar bilan qorishib ketgan bir ko'rinishi bo'lmoqda. Har bir ekilgan nihol tabiatga yana bir umr bahshida etadi. Har bir ko'chat yurtidoshlarimizning ona zaminga bo'lgan cheksiz muhabbati va mas'uliyati ifodasi bo'ladi. Hududlarda yangi barpo etilayotgan dendrologiya bog'lari esa bu ezgu an'analarni ilmiy asosda asrlarga muhrlaydi. Zero, bugun zaminga qadalgan har bir novda ertaga yurtimiz farovonligi, xalqimiz salomatligiga xizmat qiladi. Bu esa "Yashil makon" g'oyasining nafaqat ekologik, balki yuksak insoniylik va ma'naviy ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. O'tgan davrda 2 ming gektardan ziyod maydonda 942 ta yashil bog' va yashil jamoat parklari, 47 ta massivda "Yangi O'zbekiston bog'lari" barpo etildi. Respublikaning tog', cho'l va adir hududlarida 256 ming gektar o'rmon tashkil qilindi. Orolning qurigan tubida 2 million gektar maydonda yashil qoplama himoya o'rmonzorlari yaratildi. Shamol va qum-chang bo'ronlari zararli ta'sirining oldini olish maqsadida 33 ta tumanda 60 kilometrli "yashil belbog'" hosil qilindi. O'tgan yili Xo'jayli, Yangibozor, G'ijduvon, Baliqchi va Ohangaron

tumanlarida yiliga 5,5 million tup manzarali daraxt ko'chatlari yetishtirish imkonini beradigan zamonaviy ko'chatxonalar ishga tushirildi. Shuningdek, cho'llanishni kamaytirish maqsadida Xitoy tajribasi asosida joriy yil ilk bor Armasoy, Qorako'l, Muborak, Karmana va Nukus tumanidagi 50 gektar maydonda suvsizlikka chidamli galofit bog'lari yaratildi. Ta'kidlanganidek, bu yerda yetishtirilgan galofit urug'lari kelgusida minglab gektar yerlarda sho'rланishni kamaytirish va tuproq unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Umuman, qisqa davrda respublikada yashillik darajasi 8 foizdan 14,2 foizga oshdi. O'tgan hafta Prezidentimiz imzolagan yangi farmonga muvofiq, 2030-yilga qadar mamlakatimizda umumiy yashillik darajasini 30 foizga, jon boshiga to'g'ri keladigan yashil hududlarni 10 kvadrat metrga yetkazish bo'yicha katta marra belgilandi. Shu maqsadda Surxondaryoda 10 ming gektarda "yashil makon", Sirdaryoda 84 kilometrli "yashil devor" barpo etiladi. Qoraqalpog'istonda 1 million gektar, Navoiy va Buxoroda 300 ming gektardan, Xorazmda 85 ming gektar cho'l hududida yangi o'rmonzorlar yaratiladi. Shuningdek, viloyat hokimlarining har biri kamida 100 gektar maydonda botanika va dendrologiya bog'lari, 20 tadan soya-salqin sayr ko'challari tashkil qilishga mas'ul bo'ladi. Ekologiya va aholi salomatligi eng dolzarb masalaga aylanib borayotgan hozirgi sharoitda hududga mos daraxt turlarini tanlash va ekishda Xalqaro molekulyar allergologiya markazining tavsiyalari ham muhim ahamiyat kasb etishi qayd etildi. (Davomi 2-betda).

Senat qo'mitasida

SUD-HUQUQ SOHASIGA DOIR MUHIM MASALALAR KO'RIB CHIQLDI

Oliy Majlis Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining kecha bo'lib o'tgan yig'ilishida mahalliy davlat hokimiyati va sud tizimi bilan bog'liq qonunlar muhokama qilindi.



bilan izohlandi. Bundan tashqari, qonun bilan ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining Kengash deputatlari savollariga javoblarini eshitish bo'yicha "Kengash soati" instituti joriy qilinishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar ham kiritilmoqda. Majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun ham ko'rib chiqildi. Ta'kidlanganidek, sudga hurmatsizlik qilish holatlarining oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va sud ishlarini hal etishga aralashganlik uchun javobgarlik choralarini aniqlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. ➡

Parlament hayoti

DEPUTATLAR TASHABBUSI – ADOLATLI QARORLAR KAFOLATI

Bugun xalq vakillarining mas'uliyati faqatgina saylov jarayonlari yoki qonun ijodkorligi bilan cheklanib qolmaydi.



Davlatimiz rahbarining 2025-yil 29-avgustdagi "Tashabbusli byudjet jarayonlarini takomillashtirish doirasida xalq vakillari va saylovchilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori deputatlar zimmasiga yangi va o'ta mas'uliyatli vazifani yukladi. Bu ovoz berish jarayonlarida g'olib bo'lmagan, biroq aholi uchun hayotiy zarur hisoblangan loyihalarni ro'yobga chiqarish orqali ijtimoiy adolatlarni qoraytirish masalasidir. Qayd etish joiz, mazkur qarorga ➡

asosan 2026-yil 1-yanvardan boshlab Qonunchilik palatasi deputatlari respublika byudjeti mablag'lari hisobiga har yili "Tashabbusli byudjet" jarayonlari doirasida tegishli saylov okruglarida g'olib bo'lmagan loyihalar orasidan ikkita loyihani (har mavsumda bittadan) saylovchilarning manfaatlarini inobatga olgan holda "Ochiq byudjet" axborot portali orqali tanlashi va loyiha deputat tashabbusiga ko'ra g'olib, deb e'lon qilinishi belgilangan. Portalda deputatlar tashabbusi asosida moliylashtiriladigan loyihalar uchun alohida sahifa shakllantirilib, shu turdagi barcha loyihalarning jamoatchilik uchun ochiq ro'yxati yuritilishi belgilab qo'yilgan. ➡

TADBIRKORLIK – IQTISODIYOTNING YETAKCHI KUCHI

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda sog'lom raqobat muhitini yaratish borasida olib borilgan tizimli islohotlar natijasida ushbu subyektlar iqtisodiyotimizning yetakchi kuchi – drayveriga aylandi.

Mulohaza

Xususan, so'nggi besh yilda bu soha ish o'rni, investitsiya, innovatsiya, raqobat, qo'shilgan qiymat va eksportni ko'paytirishga eng katta hissa qo'shayotgan yo'nalishlar qatoridan o'rin oldi. Ularning safi kengayib, kichik va o'rta tadbirkorlar soni ikki karra ko'paydi. Band aholining qariyb 74 foizi aynan shu sohadan daromad topmoqda. Kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi umumiy daromadlar tarkibining 58 foiziga teng bo'ldi.

O'tgan yil davomida kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulot (YAIM)dagi ulushi 52,2 foizni, hajmi 923,5 trln. so'mni tashkil etdi. Ularning YAIMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon, baliqchilik xo'jaligida 93,1, qurilish sohasida 76,6, xizmatlar yo'nalishida 47,2 va sanoatda 28,5 foizga yetdi. Sohani qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Biznes yuritish qoidalarini soddalashtirilishi hamda raqamli texnologiyalar ommalashayotgani shaffof tadbirkorlik muhitini shakllantirishda hamda naqdsiz to'lovlar

uchun qulayliklarni kengaytirishda omil bo'lmoqda. Prezidentimizning 2026-yil 16-fevraldagi tegishli farmoni bilan joriy yilga mo'ljallangan ustuvor islohotlar va ularning ijrosini tashkil qilish chora-tadbirlari belgilandi. Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan bu farmon mamlakatimizda tadbirkorlikni yanada ravnaq toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Farmonda 2026-yilda 6,6 foizli iqtisodiy o'sish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini 167 mlrd. dollarga yetkazish, mahallalarda 10 mingdan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalarini ishga tushirish orqali qo'shimcha 100 mingta yangi ish o'rnini yaratish, kambag'allik va ishsizlikdan xoli mahallalar sonini 3,5 mingtaga yetkazish ko'zda

tutilgan. Shuningdek, 1 mln. nafar fuqaroni doimiy ish bilan ta'minlash va 263 ming oilani kambag'allikdan chiqarish orqali kambag'allik darajasini 2,8 foizgacha hamda ishsizlik ko'rsatkichini 4,5 foizgacha tushirish chora-tadbirlarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Farmonda iqtisodiyotga 50,4 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish, xizmatlar bozori hajmini 100 mlrd. dollardan oshirish choralarini ko'rish hamda qurilish ishlari hajmini 11 foizga ko'paytirib, 30 mlrd. dollarga yetkazish va 4 mlrd. AQSH dollari 3,5 mingdan ziyod yangi xizmat ko'rsatish obyektlari ishga tushirilishini ta'minlash ham o'z aksini topgan. ➡

Surur



BU YURT SHUNDAY GULU RAYHONLAR YURTI!

Nihollar kundan-kun ko'rsatmoqda bo'y, Bunda hukm surar tinchlik, xushg' o'y, Nafasi huzurbaxsh, betakror yuguboy, Bag'ishlar qalblarga so'nmas sururki, Bu yurt shunday gulu rayhonlar yurti!

Ajdodlar sabog'in olgan har chaman, Har chinor, har terak, har bir yosuman, Bugun bo'lmish axir muazzam Vatani, Ulug'vor maqsadlar boshlagan yo'liki, Bu yurt shunday gulu rayhonlar yurti!

Yashil – yashnamog'u yashamoq ramzi, Yashillikka to'ldi o'lkam har fasli, Bu saodat asri, ezgulik asri, Baxsh etar yurakka faxru g'ururki, Bu yurt shunday gulu rayhonlar yurti!

Bo'ladi dildoshi, shunday huzurki, Bu yurt shunday gulu rayhonlar yurti!

Dunyoning bog'lari boshlanar shundan, Shu nurli tilakdan, shu saxiy kundan, Oddiy haqiqatni angla bugundan, Xalqim tuydi buni, ming-ming shukurki, Bu yurt shunday gulu rayhonlar yurti!

Ulug' his yo'q Vatani muhabbatidan, U yashnar insonning marhamatidan, Bir bunyodkor Qalbning haroratidan, Ortari diyorimda gulshanlar ko'rki, Bu yurt shunday gulu rayhonlar yurti!

Bir tarafda vodi, voha bir taraf, Boradiri nurafshon manzilga qarab, Yashaydi hurligini gul misol asrab, Har bir go'shasida yayragay elki, Bu yurt shunday gulu rayhonlar yurti!

Ko'klamning ishqida mavjlanar har yoq, Orzusi musaffo, tolei porloq, Yangi O'zbekiston bog'lariga boq, Chiroyga to'lishib borar har yilki, Bu yurt shunday gulu rayhonlar yurti!

Bor bisotin farzandiga atagan, O'zbekiston, o'zim ketay sadag'ang! Yaxshi niyat ila ko'chat qadagan, Nur yog'ar qalblardan, shundayin nurki, Bu yurt shunday gulu rayhonlar yurti!

Elim, ogoh aylab bashariyatni, Chorla yaxshilikka, pokla niyatni, Unutmasin toki bu qadriyatni: Har novda – kelajak, bugundan ulgi, Bu yurt shunday gulu rayhonlar yurti!

Gullamoq baxtidan sevingan Orol, To'ladi bog'larga, ochadi jamol, Ko'ksiga qadalgan har bitta nihol, O'tkir RAHMAT.

MILLIY DENDROLOGIYA BOG'I ILM-FAN, AZALIY QADRIYATLAR VA EZGU NIYATLARNI UYG'UNLASHTIRADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Joriy yildan har bir hududda "yashil" texnikumlar faoliyati yo'lga qo'yilib, dual ta'lim asosida yiliga 10 ming nafar mutaxassis tayyorlash boshlanadi. Botanika va dendrologiya bog'lari ushbu texnikum o'quvchilari uchun amaliyot bazasiga, ilmiy xodimlar uchun esa tadqiqot maydoniga aylanadi.

Prezidentimiz hududlarda yashil bog'lar yaratish bo'yicha aholi va deputatlar ishtirokini yanada kengaytirishni taklif qildi. Ilgari "Mening bog'im" dasturi doirasida har bir loyihaga byudjetdan 250 million

so'mgacha mablag' berilgan bo'lsa, endi bu miqdor 400 million so'mga oshiriladi. Har bir yashil bog' va jamoat parki uchun aholi o'zi tanlagan, yashash hududlariga yaqin va eng muhimi, suv ta'minoti mavjud joylardan 1 gektargacha yer ajratiladi. Bu yilgi mavsumdan Qonunchilik palatasining har bir deputatiga ham o'z okrugi yashil hudud va yashil bog' yaratishi uchun 412 million so'mdan mablag' beriladi.

Davlatimiz rahbari xalqimizda "Yaxshidan bog' qoladi", "Bir ko'chat – ming baraka", "Farzand ko'rsang, to'y qilsang, daraxt ek" degan hikmatli so'zlar bejiz aytilmaganini ta'kidladilar. Bu kabi

milliy qadriyatlar ahamiyati bugun har qachongidan ham dolzarb bo'lib borayotgani ko'rsatib o'tildi.

Shu munosabat bilan Prezidentimiz mahalla raislari, otaxon va onaxonlarimiz, xotin-qizlar vakillari hamda barcha faollarni joylarda milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlarini yanada kengroq targ'ib qilishga, klublar va jamoalar tashkil etib, har bir ko'cha, xonadon, yo'l bo'ylariga nihol va gullar, qir-adirlarga daraxt va butalar ekishda bosh bo'lishga chaqirdi.

Poytaxtimizda 108 gektar maydonda Milliy dendrologiya bog'i tashkil qilinmoqda. Bu yerdagi "Yashil" universitet

hududida "ilm – loyiha – amaliyot" zanjiri asosida barpo etilayotgan "in vitro" laboratoriyasi, dorivor o'simliklar hamda urug'chilik va seleksiya markazlari ham shu yilning o'zida ishga tushiriladi.

Ushbu majmualar nafaqat ko'chat yetishtirish maskani, balki mamlakatimizning ekologik kelajagini ilmiy asosda loyihalashtiruvchi tabiiy maskanga aylanadi. Kelgusida bu yerda yetishtiriladigan nihollar tabiatning turli injiqliklariga va suvsizlikka chidamligi bilan ajralib turadi. Bog' yana mahalliy iqlimga mos, kam suv talab qiladigan noyob daraxt turlarini ko'paytirishga

ham xizmat qiladi. Bu esa loyihaning shunchaki miqdor emas, balki sifat va ilmiy asoslantirilgan tamoyili asosida yo'lga qo'yilayotganini anglatadi.

Prezidentimiz tadbirida ishtirok etgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'rmonlar bo'yicha forumi raisi Ismoil Belen, forum Kotibiyati direktori Julyet Biao, xorijiy davlatlarning O'zbekistondagi diplomatik korpusi vakillari hamda barcha ishtirokchilarga samimiy minnatdorlik bildirdi.

Tadbir yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokchilar bilan birgalikda Milliy dendrologiya bog'ining ilk 5 gektar maydonida manzarali ko'chatlar ekdi.

Bu bilan bir vaqtda respublikamizning barcha hududlarida 21 mingga yaqin yurtdoshlarimiz yana 164 gektar maydonda 88 ming tup ko'chat o'tqazdi.

Bugun ko'chatlarga mehr bilan suv quyayotgan otaxonlar, bog' yaratishni hayotiy ehtiyojga aylantirgan yoshlar va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor mushtarak maqsad yo'lida birlashdi. Xalqimiz bu ezgu harakat tez orada natija berishiga ishonadi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari.**

SUD-HUQUQ SOHASIGA DOIR MUHIM MASALALAR KO'RIB CHIQLI

Qonun bilan tegishli kodekslarga sud ishlarini hal etishga aralashganlik uchun jinoy javobgarlik choralarini aniqlashtiruvchi o'zgartirish, sud binosida tartibni buzish tarzida sudga hurmatsizlik qilganlik uchun ma'muriy javobgarlik choralarini belgilovchi qo'shimcha kiritilmoqda.

Yig'ilishda senatorlar "Sud hokimiyati organlari faoliyatini moliyalashtirish to'g'risida"gi qonunni ham muhokama qildi.

Bugungi kunda sudyalalar va sud apparati xodimlarining moddiy ta'minoti, sudlar faoliyatini moddiy-texnika hamda moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun xarajatlar bo'yicha ayrim muammolar yuzaga kelmoqda.

Qonunda sud hokimiyati organlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy prinsiplari, moliyalashtirish manbasi va asosi, mablag'larni taqsimlash hamda tasarruf etish, shuningdek, sud hokimiyati organlari faoliyatini moliyalashtirish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik va boshqa qator masalalar nazarda tutilgan.

Majlisda 2025-yilda O'zbekiston Respublikasining ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi o'rni to'g'risidagi milliy ma'ruza ham ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda olib borilgan islohotlar natijasida qator xalqaro reyting va indekslarda O'zbekistonning o'rni yaxshilandi.

Jumladan, Huquq ustuvorligi indeksida O'zbekiston o'z reytingini 2 pog'onaga yaxshilab, 81-o'ringa ko'tarilgan. Shu bilan birga, Indeks tarkibidagi 8 ta indikatorning 2 tasida ko'rsatkichlar biroz pasaygan.

Hokimiyat organlari vakolatlarining cheklanganligi indikatorida O'zbekiston 114-o'rinni, Korruptsiyaning mavjud emasligi indikatorida esa 67-o'rinni, Hokimiyat institutlarining ochiqligi indikatorida 120-o'rinni egallagan bo'lsa, Qonunlarga rioya etish indikatorida 100-o'rinni band qilgan.

Majlis davomida ustuvor xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash samaradorligini oshirish, pasayish kuzatilgan hamda o'zgarishsiz qolayotgan xalqaro reytinglar va ularning tarkibiy indikatorlaridan kelib chiqib, islohotlarni jadallashtirish zarurligi qayd etildi.

Senatorlar majlisida 2025-yilda O'zbekiston Respublikasining ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi o'rni yaxshilashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar dasturlarining ijro holatini ham ko'rib chiqildi.

Muhokama chog'ida senatorlar, mas'ul vazirlik va idoralar vakillari tomonidan kun tartibidagi masalalar yuzasidan fikr va mulohazalar bildirilib, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Majlis yakunida qo'mitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

DEPUTATLAR TASHABBUSI – ADOLATLI QARORLAR KAFOLATI

Shuningdek, Qonunchilik palatasida mazkur jarayonlarni muvofiqlashtirish, loyihalarning moliyalashtirishi va amalga oshirilishi ustidan parlament nazoratini olib borish uchun deputatlardan iborat Parlament komissiyasi tuzilgan. Mazkur komissiya faoliyati "Tashabbusli byudjet" jarayonlarini to'g'ri tashkil etishga qaratilgan bo'lib, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda.

"Tashabbusli byudjet" jarayoni bir yilda ikki marta – fevral-mart (birinchi mavsum) va iyun-iyul (ikkinchi mavsum) oylari davomida o'tkazilishi belgilangan.

Deputatlar joriy yilning 23 – 28-mart kunlari hududlarda, o'z saylov okruglarida bo'lib, "Tashabbusli byudjet" jarayonlarida g'olib bo'lmagan loyihalar bilan tanishdi, mahallalar aholisi bilan uchrashib, muloqotlar o'tkazdi.

Birinchi mavsumda g'olib bo'lmagan har bir loyiha chuqur o'rganilib, uning zarurati baholandi. Natijada umumiy miqdori 238,9 mlrd. so'm bo'lgan qariyb 150 ta loyiha deputatlar tashabbusiga ko'ra g'olib, deb topildi. Albatta, bu, o'z navbatida, hududlardagi dolzarb muammolarni hal etishda katta imkoniyat yaratadi.

Tanlangan g'olib loyihalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning 46 tasi, ya'ni 30,9 foizi maktab va maktabgacha ta'lim hamda sport, 10 tasi – 6,7 foizi sog'liqni saqlash va qolgan 94 tasi – 62,4 foizi infratuzilma bilan bog'liq muammolarni (ichki yo'llar, ko'priklar qurish, elektr energiyasi, ichimlik suvi, oqova, tizimi, drenaj va arilarni tartibga keltirish, mahalla guzarini ta'mirlash va boshqalar) tashkil qilgan.

"Tashabbusli byudjet" jarayonlarining ahamiyatiga oid quyidagi fikr-mulohazalar shu haqda.

Inson manfaatlarini – oliy qadriyat

Robaxon MAHMUDOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi "Adolat" SDP fraksiyasi rahbari:

– Prezidentimizning 2025-yil 29-avgustdagi qarori "Tashabbusli byudjet" jarayonlarini takomillashtirish doirasida xalq vakillari va saylovchilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Albatta, ushbu jarayonda fraksiyamiz hamda partiyamizning Markaziy va hududiy kengashlari vakillaridan tuzilgan ishchi guruhimiz bilan faol ishtirok etgan holda, Farg'ona viloyatida o'rganishlar olib bordik.

Aytilish joizki, Farg'ona tumanidagi Gulpiyon mahallasi o'ziga xos hudud. Qirg'iziston bilan chegaradosh bo'lgan bu maskanda o'zbek,



hamon chang va loy ko'chalardan yurishga majbur bo'lgan edi. Uch kilometrlik ichki yo'lning abgor holati nafaqat transport harakatiga, balki aholi kayfiyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatayotgani bor gap.

Mahalla ahli bilan uchrashuvimizda aholi manfaatidan kelib chiqib ish tutdik. Zero, chegaradosh hududlarda yashovchi aholiga munosib sharoit yaratish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash va bolalarning maktabga xavfsiz borishini ta'minlash ustuvor vazifalardan biridir.

Biz uchun g'olib bo'lmagan loyiha degani – muammoni e'tiborsiz qoldirish degani emas. Aksincha, bunday hududlar bizning diqqat markazimizda bo'lishi kerak. Ayniqsa,

TADBIRKORLIK – IQTISODIYOTNING YETAKCHI KUCHI

E'tiborsiz, yurtimizda 2030-yilga borib iqtisodiyotimiz hajmini 240 mlrd. dollardan oshirish,

bu davrda kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsad qilingan. 2026-yilda tadbirkorlik infratuzilmasi loyihalariga 10 trln. so'mdan ziyod mablag', shuningdek, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun esa 140 trln. so'mlik resurs ajratish hamda asosiy soliq stavkalarini o'zgarishsiz qoldirish kabi rejalar bu yo'lidagi qat'iy qadamlardir.

Ushbu maqsadlarning deobochasi sifatida 2026-yilda "mahallada sanoat va xizmat" loyihasi orqali 10 mingdan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalarini ishga tushirish uchun 5 trln. so'm kredit mablag'lari yo'naltiriladi. Eng muhimi, kredit foizining milliy valyutada 10 foizgacha, xorijiy valyutada 4 foizgacha bo'lgan qismi "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ tomonidan qoplab beriladi. Buning uchun 400 mlrd. so'm mablag'lar ajratiladi.

Albatta, aholi bandligini ta'minlash orqali ularni daromadli qiladigan, ishchan, elda ma'murchilik yaratadigan tadbirkorlik subyektlariga qancha ko'p imkoniyat va qulaylik yaratilsa, ishlab chiqarish ko'lami ham, mahsulot hajmi va sifati ham shuncha oshadi. Asosiysi, biznes yuritish shart-sharoitlarini yanada yaxshilash, sohani rivojlantirishga oid islohotlarni izchil davom ettirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, ularni zarur moliyaviy va infratuzilmaviy resurslar bilan ta'minlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolaveradi.



Kobul TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari.

Hamkorlik

OLIMLAR QONUN LOYIHALARINI TAYYORLASHDA QATNASHADI

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'rtasida hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi.

Memorandum doirasida universitet olimlarini qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish hamda ilmiy ekspertizadagi o'tkazishga jalb etish, qonunchilik tashabbuslarini ilmiy asoslash, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish nazarda tutilgan.

Shuningdek, ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish, dolzarb masalalar yuzasidan qo'shma tadbirlar o'tkazish, parlament eshituvlari va komissiya majlislarida ekspertlar ishtirokini ta'minlash rejalashtirilgan.

Ta'kidlanganidek, mazkur hamkorlik qonun ijodkorligini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi doimiy hamkorlik platformasiga aylanadi.

"Xalq so'zi".


Muhim loyihalarni qo'llab-quvvatlashda mas'ullik

Maqsudbek QURBONBOYEV,
Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari:

– Darhaqiqat, bugungi kunda fuqarolar nafaqat kuzatuvchi, balki byudjet taqsimoti jarayonining bevosita ishtirokchisiga aylanmoqda. "Ochiq byudjet" portali orqali aholi tomonidan ilgari surilgan loyihalar ochiq ovoz berish vositasida saralanadi. Eng ko'p ovoz to'plagan loyihalar g'olib, deb topilib, moliyalashtiriladi. Bu jarayonda adolat, tenglik va oshkorlik ustuvor tamoyil sifatida xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, g'oliblarni aniqlashning raqamlashtirilgan tizimi inson omilini keskin kamaytirib, qaror qabul qilish jarayonini xolis va shaffof tarzda amalga oshirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim holatlarda juda muhim va dolzarb loyihalar yetarli ovoz to'play olmagani sababli g'oliblikka erisha olmayapti. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, Prezidentimiz tashabbusi bilan yangi mexanizm – deputatlar ishtiroki joriy etilgan e'tiborga molik.

Yilning yilning mart oyida saylov okruglaridagi faoliyatimiz davomida mazkur yo'nalishga alohida e'tibor



qaratdik. Shu bilan birga, ovoz berish natijasida g'olib bo'lmagan loyihalar har bir loyihani joyiga chiqib, atroficah o'rgandik. Jumladan, Yangiariq tumanidagi qator loyihalar tahlil qilindi.


O'rganishlar natijasida tumanning Chaqir mahallasida joylashgan "Oq machit" kanali ustidagi ko'prikn ta'mirlash loyihasi 79 ta ovoz to'plaganini aniqlandi. Biroq ushbu ko'prikn ko'p yillardan buyon aholiga xizmat qilib kelayotgani, ayni paytda uning holati ancha yomonlashgani

Ortga qaytmas islohotlarga ishonch yanada mustahkamlanadi

Zafar XUDOYBERDIYEV,
Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi a'zosi:

– Men saylangan 25-Namangan viloyati saylov okruqi tarkibiga kiruvchi Mingbuloq tumanining eng chekka hududlaridan biri bo'lgan Beshserka mahallasi hozirda "og'ir" toifadagi hududlar ro'yxatiga kiritilgan. Mahallaning asosiy qon tomiri hisoblangan Buloqboshi ko'chasining 2,6 km. qismi yaroqsiz holga kelib qolganligini o'tgan yilning oktabr oyida borib ko'rgandim. Ushbu mahallada joylashgan 29-umumta'lim maktabida bo'lgan uchrashuvimizda ham saylovchilar ushbu yo'lni ta'mirlashda ko'mak so'rashgan edi.

Prezidentimizning "Tashabbusli byudjet jarayonlarini takomillashtirish doirasida xalq vakillari va saylovchilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan "Tashabbusli byudjet" jarayonlari doirasida



g'olib bo'lmagan loyihani deputat tashabbusiga ko'ra g'olib, deb e'lon qilish vakolatining berilishi ushbu muammoning hal etilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Mazkur loyihaning qo'llab-quvvatlanishi ortidan hududdagi ko'plab ijtimoiy muammolar o'z yechimini topadi. Chunki bu yo'l nafaqat ichki, balki Yangi Gulbog' bilan Beshserka mahallalarini bog'laydigan, transport vositalari qatnovining yaxshilanishi evaziga Beshserka mahallasi aholisining tuman markaziga borish va kelish vaqtini sezilar darajada qisqartiradigan, mahalla qabristonini ziyorat qilish uchun aholiga yengilliklar yaratadigan yo'l hisoblanadi.

Daxldorlik hissi

Furqat XUDOYBERDIYEV,
O'zbekiston mahallalari uyushmasi Toshkent viloyati boshqarmasi boshlig'i:

– Prezidentimizning qaroriga ko'ra, "Tashabbusli byudjet" jarayonlarida deputatlarining amaliy ishtiroki ortganidan biz, mahalla tizimi vakillari juda mamnunmiz. Xalq ishonchi –

bu yuksak mas'uliyat bo'lib, u fidoyilikni talab etadi. Bugun Qonunchilik palatasi deputatlarining nafaqat qonun ijodkorligi jarayonidagi, shu bilan birga, saylov okruglaridagi faoliyatini kuzatib, ularning mas'uliyati va ularga bo'lgan ishonch bir necha barobarga ortganini ko'raman.

Prezidentimiz tashabbusi va qaroriga ko'ra, yaqinda hududlarda bo'lgan xalq vakillari o'z saylov okruglarida aholi uchun dolzarb bo'lgan, ammo avval g'olib bo'lmagan loyihalarni tanlab, "Ochiq byudjet" axborot portali orqali ularni moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'layotgani xalqimizning ularga ishonchini mustahkamlamoqda. Eng muhimi, deputatlarining o'z elektorati bilan hamkorligi kuchaymoqda.

Shubhasiz, bu parlament faoliyatida yangi va samarali bosqich, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, saylov okruglaridagi muammolarni hal etishda "Tashabbusli byudjet" jarayonlari muhim mexanizmdir. Bu orqali aholining kundalik hayotiga va hududni rivojlantirishga bevosita ta'sir qiladigan loyihalar qo'llab-quvvatlanadi. Pirovardida aholi farovonligi, yurtimiz barqarorligi ta'minlanadi.

"Xalq so'zi".

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLIKlARI, HOKIMLIKlARI, AKSIYADORLIK JAMIYATLARI, BANKLAR, BARCHA TA'LIM MUASSASALARI, TASHKILOTLAR VA QO'SHMA KORKONALAR RAHBARLARI DIQQATIGA!

ISLom KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

2025/2026 o'quv yilida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning intellektual salohiyatidan unumli foydalanish va ish bilan ta'minlashga ko'maklashish maqsadida ishga taqsimlash jarayoni boshlanganligini xabar qiladi. 2026-yil 10-aprel kuni o'tkaziladigan «Karyera kuni» mehnat yarmarkasi tadbiriga taklif etamiz.

Shu munosabat bilan bitiruvchi yosh mutaxassislarga siz rahbarlik qilayotgan korxonaga, tashkilot va muassasada ehtiyoj mavjud bo'lsa, talabnoma va so'rov xati bilan hamda taklif etilayotgan lavozim to'g'risida ma'lumotlar bilan murojaat etishingizni so'raymiz. Universitetni bitirayotgan O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va Toshkent shahridan bo'lgan malakali yosh mutaxassislar haqidagi ma'lumotni quyidagi jadvalda sizning e'tiboringizga havola etamiz.

BAKALAVRIAT

№	Shifr	Ta'lim yo'nalishlari nomi	Bitiruvchilarning umumiy soni		Shu jumladan, viloyatlar bo'yicha																													
					O'zqadamli Respublikasi		Andijon viloyati		Buxoro viloyati		Jizzax viloyati		Navoiy viloyati		Namangan viloyati		Samarqand viloyati		Surxon-daryo viloyati		Sirdaryo viloyati		Toshkent viloyati		Farg'ona viloyati		Xorazm viloyati		Qashqadaryo viloyati		Toshkent shahri		Boshqa davlatlar	
1	2	3	4		5		6		7		8		9		10		11		12		13		14		15		16		17		18		19	
			Jami	G*	Sh**	G	Sh	G	Sh	G	Sh	G	Sh	G	Sh	G	Sh	G	Sh	G	Sh	G	Sh	G	Sh	G	Sh	G	Sh	G	Sh			
1	60112400	Professional ta'lim (yo'nalishlar bo'yicha)	17	3	14	1	3																											
2	60112400	Professional ta'lim: Mexatronika va robototexnika	10	3	7																													
3	60210402	Dizayn (sanoat dizayni)	35	12	23			1	1																									
4	60410100	Iqtisodiyot	34	18	16																													
5	60310100	Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	58	16	42																													
6	60410800	Menegment	12	6	6																													
7	60411200	Menegment (sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni boshqarish)	34	7	27	2	1																											
8	60411600	Korporativ boshqaruv	42	3	39																													
9	60710500	Energetika (tarmoqlar bo'yicha)	194	68	126	6	10	1	2	5	12																							
10	60710600	Elektr energetikasi (tarmoqlar va yo'nalishlar bo'yicha)	182	44	138	1	6	1	1	3	4																							
11	60712100	Metallurgiya	70	13	57																													
12	60712400	Avtomobilsozlik va traktorsozlik	53	12	41																													
13	60712500	Transport vositalari mahandisligi (turlari bo'yicha)	111	16	95	3	5																											
14	60710700	Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (tarmoqlar bo'yicha)	77	34	43			1	1	1	4	3																						
15	60711200	Elektronika va asbobsozlik (tarmoqlar bo'yicha)	44	13	31																													
16	60711300	Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menegmenti (tarmoqlar bo'yicha)	41	13	28	1																												
17	60711400	Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha)	89	32	57	2	2																											
18	60710600	Gidroenergetika	28	8	20			1	1																									
19	60722500	Geodeziya, kartografiya va kadastr (funktsiyalari bo'yicha)	49	14	35	1																												
20	60721500	Konchilik ishi (faoliyat turlari bo'yicha)	100	34	66	1																												
21	60721700	Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi (kon turlari bo'yicha)	79	23	56	2	1																											
22	60720600	Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi (neft va gaz konlari)	19	9	10	1																												
23	60721700	Gidrobiologiya va mahandislik geologiyasi	32	11	21																													
24	60721800	Neft va gaz ishi (neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish)	124	30	94	3	6	5	8	2	5	1	2	1	3	1	2	1	4	1	13													
25	60710900	Energiya tejankorligi va energosadir	48	15	33	1																												
26	60721900	Konchilik elektr mexanikasi	19	8	11																													
27	60722000	Markshayderlik ishi	34	11	23																													
28	60711000	Muqobil energiya manbalari (turlari bo'yicha)	17	8	9			1	1	1	1	1																						
29	60711100	Energiya mashinasozligi (tarmoqlar bo'yicha)	21	6	15	1	1																											
30	60711500	Mexatronika va robototexnika	26	6	20																													
31	60711600	Intellektual mahandislik tizimlari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	6	3	3																													
32	60711700	Lazer-yorug'lik texnologiyalari va optoelektronika	19	10	9																													
33	60711800	Biotibbiyot mahandisligi	26	10	16																													
34	60713000	Gaz jihozlaridan foydalanish va ularga xizmat ko'rsatish	29	9	20	1	8	1	1																									
35	60712200	Payvandlash texnologiyasi va jihozlari	31	11	20	2	2																											
36	60720600	Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi (tarmoqlar bo'yicha)	29	8	21																													
37	60720800	Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishni mahandislik va avtomatlashtirish	63	18	45	1																												
38	60720700	Texnologik mashinalar va jihozlari (tarmoqlar bo'yicha)	145	34	111	4	5	1	2	4																								
39	60710200	Biotehnologiya	36	9	27																													
40	60720900	Neft-gaz-kimyo sanoati texnologiyasi	41	9	32	3	5	1	2	1	1																							
41	60712000	Elektron apparatlar ishlab chiqarish texnologiyasi	16	5	11																													
42	60712300	Metallar texnologiyalari (qaynon turlari bo'yicha)	122	48	74	2	4	2	3	3																								
43	60610200	Ashborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	42	12	30																													
44	60730300	Qurilish mahandisligi (neft-gazni qayta ishlab chiqarish obyektlari qurilishi)	34	6	28	1	2																											
45	60610700	Sun'iy intellekt	27	6	21																													
46	60611500	Radioelektron qurilmalar va tizimlar (tarmoqlar bo'yicha)	33	9	24	1	3																											
47	60710400	Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	34	7	27																													
48	61020100	Hayotiy faoliyat xavfsizligi	36	11	25																													
49	61020200	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar bo'yicha)	27	11	16	1	1	1	1																									
		Jami	2495	732	1763	39	86	20	44	63	97																							

YANGIO'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM:

ISLOHOTLAR, YUTUQLAR VA ISTIQBOL

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O'zbekistonni ravnaq toptirish yo'lidagi dastlabki va eng muhim o'zgarishlar aynan ta'lim, xususan, oliy ta'lim tizimidan boshlangani bejiz emas. Zero, zamonaviy bilim va malakaga ega kadrlarni tayyorlash har qanday taraqqiyotning paydevori hisoblanadi.

Nuqtai nazar

Samarali huquqiy asoslar

Prezidentimizning 2017-yil 20-aprildagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu jarayonning boshlang'ich nuqtasi bo'ldi. Mazkur hujjat asosida oliygohlar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'quv jarayonini modernizatsiya qilish va professor-o'qituvchilar tarkibini sifat jihatdan yangilash choralarini belgilandi. 2019-yil 8-oktabrda esa davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Mazkur konsepsiya sohaning uzoq muddatli strategik rivojlanish modelini belgilab berdi. Unga ko'ra, 2030-yilga qadar oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro reytinglarning "TOP - 1000" taligiga kiritish, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini keskin oshirish vazifalari qo'yildi.

Tizimdagi islohotlar haqida gap borarkan, moliyaviy mustaqillik masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda 40 dan ortiq yetakchi davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berildi. Bu esa universitetlarga o'z byudjetini mustaqil shakllantirish, grantlar jalb qilish, shartnoma mablag'larini erkin boshqarish va infratuzilmani rivojlantirish imkonini berdi. Boshqaruv tizimida ham tub o'zgarishlar amalga oshirildi, xususan, kuzatuv kengashlari joriy etilgani, universitetlarning akademik va moliyaviy javobgarligi kuchaytirilganini ham alohida ta'kidlash lozim.

Xalqaro hamkorlik doirasida esa 300 dan ortiq xorijiy universitetlar bilan qo'shma dasturlar yo'lga qo'yildi. Ikki diplomli



dasturlar soni ortib, talabalar uchun global ta'lim imkoniyatlari yaratildi. O'zbekiston bugungi kunda global akademik makonning faol ishtirokchisiga aylanib, yuzlab xalqaro konferensiyalar, ilmiy forumlar o'tkazildi va akademik almashinuv dasturlariga asos solindi. Xususan, olim va tadqiqotchilarimizning xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalari soni bir necha barobar oshdi. Bu jarayonlar O'zbekiston oliy ta'lim tizimining global ilmiy hamjamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Endilikda oliy o'quv muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki innovatsiya yaratuvchi, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi va jamiyatni modernizatsiya qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Bularning samaradorligi quruq statistika va balandparvoz gaplar bilan emas, balki zamonaviy ilm-fan tahlili asosida xalqaro baholash tizimlari orqali o'lchanadi. Reytinglarda yuqori o'rin egallagan universitetlar global ilmiy hamjamiyatda tan olindi, xorijiy talabalar va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglarga kirib borayotgani tizimning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Oxirgi 5-yilda O'zbekiston oliygohlarining 10 dan ortig'i turli xalqaro reytinglarda o'z o'rnini egallay boshlagani so'zimizning amaliy tasdiqidir.

Buning yorqin misoli sifatida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetini ko'rsatish mumkin. Universitet so'nggi yillarda matematika va fizika yo'nalishlari bo'yicha xalqaro reytinglarga

kirishga muvaffaq bo'ldi. 2026-yil 25-mart kuni oliy o'quv yurti 4 ta fan yo'nalishida dunyoning eng kuchli "TOP - 500" universitetlari qatoridan joy oldi. Xalqaro reyting natijalariga ko'ra, arxeologiya yo'nalishi 201 - 260 o'rin, matematika yo'nalishida 100 pog'ona yuqoriga ko'tarilib, 301 - 350 o'rin, lingvistikada bo'yicha ilk bor dunyoning kuchli 301 - 350 universitetlari qatoridan joy oldi. Fizika va astronomiya yo'nalishida esa avvaligiga nisbatan 200 pog'ona yuqorilab 401 - 450 o'rnini egalladi.

Zamonaviy talabalar bilan uyg'unlik

O'zbekiston Milliy universitetida ilk bor 1940-yilda tarix fakulteti tarkibida maxsus O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasini tashkil etilganidan beri ushbu yo'nalishda kadrlar

hamda talabalar ishtirokida Qashqadaryo viloyatining Yerqo'rg'on yodgorligiga xalqaro arxeologik ekspeditsiya tashkil qilinib, Yerqo'rg'on shahriga oid me'moriy inshoot devori ochib aniqlangani yosh kadrlardagi ilimga chanqoqlik ruhini yanada ko'tardi.

2019-yil 23-iyulda Ispaniyaning Avtonom Madrid universiteti va O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti o'rtasida 21-yillik hamkorlik shartnomasi imzolandi. Bu bo'yicha Avtonom Madrid universitetidan taniqli professorlar talabalarga har o'quv yilida ma'ruza o'qib kelmoqda. Bundan tashqari, kafedra o'qituvchilari Ispaniyaning ayrim ilmiy nashrlarida tadqiqotlarini chop ettirmoqda.

2022-yilda esa O'ZMU va Fransiyaning Parij shahrida joylashgan Luvr muzeyi o'rtasida o'zaro ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadida xalqaro shartnoma

"O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglarga kirib borayotgani tizimning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Oxirgi 5-yilda O'zbekiston oliygohlarining 10 dan ortig'i turli xalqaro reytinglarda o'z o'rnini egallay boshlagani so'zimizning amaliy tasdiqidir."

tayyorlab kelinmoqda. O'tgan 85-yildan ziyod vaqt davomida kafedradan 7 nafar akademik, 1 fan arbobi yetishib chiqdi. Kafedra o'z davrida butun Markaziy Osiyo uchun arxeolog kadrlarni tayyorlovchi yagona ilmiy muassasa sifatida xizmat qildi.

So'nggi 8-yilda arxeologiya yo'nalishida kadrlar tayyorlash jarayoni zamonaviy talabalar bilan uyg'unlashtirildi, xalqaro darajaga ko'tarish uchun qator yangiliklar amalga oshirildi. Xususan, asosiy e'tibor xorijiy hamkorlar va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ishlashga qaratildi. Jumladan, 2018-yilning 16-martidan 30-martigacha tarix fakulteti Arxeologiya kafedrasini professor-o'qituvchilari tomonidan AQSHning Xofstra universiteti vakili

imzolandi. Mazkur hujjatga muvofiq 2022-yil Luvr muzeyida tashkil etilgan "O'zbekiston vohalari xazinalari. Karvon yo'llari chorrahasida" nomli ko'rgazmada qatnashildi. Ushbu ko'rgazmada O'zbekiston Milliy universiteti o'quv kabinet muzeyida saqlanayotgan VII-VIII asrlarga mansub Xirmontepandan topilgan Ossuariy (sopol tobutcha) o'rin oldi.

2023-yil 14-mart kuni Fransiyaning Lion 2 universiteti bilan o'zaro hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadida xalqaro shartnoma imzolandi. Mazkur oliy ta'lim muassasasi bilan hamkorlikda Surxonoyul viloyatidagi Burgutqal'a yodgorligida talabalar ishtirokida arxeologik ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi.

Sanasak, qilinayotgan ishlaru erishilayotgan yutuqlar juda ko'p. Rivojlangan mamlakatlarning oliy o'quv yurtlari bilan xalqaro aloqalar doirasida sohaning xorijlik taniqli olimlari fakultetga kelib, talabalarga ma'ruzalar o'qimoqda. Bu esa talabalarni xorijiy tajriba bilan tanishtirish va ularga eng zamonaviy ma'lumotlarni yetkazish imkoniyatini beryapti. Ayni paytda, fakultet professor-o'qituvchilarining aksariyati xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan oliy ta'lim muassasalarida ma'ruza mashg'ulotlarini olib bormoqda.

Tahlil va xulosalar shuni ko'rsatadiki...

So'nggi o'n yillikda O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi tubdan yangilandi. Qonunchilik bazasi mustahkamlandi, ta'lim muassasalari soni va sifati oshdi, boshqaruv va moliyalashtirish mexanizmlari modernizatsiya qilindi. Eng muhimi, ushbu islohotlar natijasida oliy ta'lim yopiq tizimdan ochiq, raqobatbardosh va xalqaro maydonga integratsiyalashgan tizimga aylandi. Endilikda asosiy vazifa - ushbu natijalarni mustahkamlash, ta'lim sifatini yanada oshirish va innovatsion rivojlanishni ta'minlashdan iborat.

Shubhasiz, Yangi O'zbekiston rivojida oliy ta'lim tizimi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ta'lim kelajakni belgilaydigan, jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydigan eng muhim omirdir.

Sohada olib borilayotgan tizimiy ishlardan maqsad - davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilim va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash". Bizning vazifamiz esa ushbu oliy maqsad ijrosida kamarbasta bo'lish. Zero, bugungi kunda ta'limga qaratilgan e'tibor erangi kun taraqqiyotining eng muhim kafolatidir.

Alisher MO'MINOV, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining tarix fakulteti dekani, siyosiy fanlar doktori, professor.

Ko'klam nafasi

ANDIJONDA PAVLOVNIYA GULLADI

Andijon viloyatida ayni kunlarda pavlovniya daraxtlari qiyg'os gullab, bahorning ajib jamolini namoyon etmoqda. E'tiborlisi, ko'k va binafsha tulla yaqin qo'ng'iroqsimon gullar atrofga o'ziga xos latofat bag'ishlayotir.



Ushbu go'zal manzaradan bahramand bo'lish uchun qo'shni Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'istondan, hatto Rossiya Federatsiyasidan ham sayyohlar tashrif buyurayotgani diqqatga sazovor. Bu esa pavlovniyaning nafaqat manzarali, balki turizm uchun ham katta imkoniyat ekanini ko'rsatadi.

Pavlovniya daraxti juda tez o'suvchi va yuqori ekologik samaradorlikka ega o'simlik hisoblanadi, - deydi viloyat Ekologiya va iqlim o'zgarishi bosh boshqarmasi xodimi Lochinbek Isomiddinov. - U bir yilda o'rtacha 3 - 5 metr gacha o'sishi mumkin. Eng muhim jihati, bu daraxt katta hajmda kislorod ajratib, atmosfera havosini ham tozalaydi. Issiqlikka chidamli bo'lib ajralib turadi. Daraxtning yog'ochi yengil, mustahkam va qayta ishlashga qulay.

Andijonda pavlovniya ko'chatlari keng ko'lmda ekilgan bo'lib, bugun viloyatning deyarli barcha shahar va tumanlarida ularning barq urib rivojlanayotganini kuzatish mumkin. Ko'chalor, bog'lar, mahallalar va ijtimoiy obyektlar atrofida minglab ana shunday daraxtlar ko'kka bo'y cho'zmoqda.

Pavlovniya daraxti Andijon viloyatida turizmi rivojlantirish, ekologik musaffollikni ta'minlash, ijtimoiy muhitni yaxshilash va iqtisodiy salohiyatni yuksaltirishga xizmat qilayotgan muhim omilga aylangan. Uning gullagan fasli esa tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikni yana bir bor namoyon etadi.

Saminjon HUSANOV ("Xalq so'zi").

Omilkorlik

KOSON TARVUZLARI QACHON PISHADI?

Ko'kdala tumani dehqonlari ertapishar tarvuz yetishtirishning hadisini olishgan.



Endilikda bu tajriba Koson, Chiroqchi, Qamashi tumanlarida keng ommalashmoqda. Joriy yilda Koson tumanining Alato'n qishlog'idagi xonadonlarning 80 foizdan oshig'i 40 - 50 sotixdan boshlab, 2-3 gektargacha bo'lgan maydonlarda ertapishar tarvuz yetishtirayotgani ham shundan dalolat beradi.

Hududimizning asosiy qismi lalmikor yerlar hisoblanadi, - deydi shu qishloqlik dehqon Ma'ruf Jumayev. - Nasos yordamida yer ostidan suv chiqarib, poliz mahsulotlari yetishtiramiz. O'z tomorqasida tarvuz yetishtirayotganlar ham, tuman xazarisidagi lalmikor yerlari ijarga olib dehqonchilik qilayotganlar ham ko'p.

Uning aytishicha, avvallari ertagi tarvuz yetishtirishda ish fevralning oxirlarida boshlangan. Natijada mayning so'nggi kunlari, iyunning boshlariga borib ikk hisil pishib yetilgan. Hozir esa buga yanvar oyidanoq kirishildi. Pirovardida esa tarvuz qariyb bir oy erta yetiladi.

Ta'kidlash joziki, o'tgan yilgi mavsumda qashqadaryolik mirishkorlar 10 million dollardan ortiq qiymatdagi tarvuzni eksport qilgan bo'lsa, joriy yilda bu raqam yanada ortishi kutilmoqda.

Jahongir BOYMURODOV ("Xalq so'zi").

EKOLOGIYA — JAMOATCHILIK ISHI

So'nggi yillarda aholining jamoat va ijtimoiy ahamiyatga ega jarayonlarni boshqarishda ishtirokini kengaytirishga qaratilgan davlat siyosati yangi bosqichga ko'tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan davlat organlari huzurida Jamoatchilik kengashlari shakllantirilishi bu borada tashlangan eng muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Binobarin, barcha vazirlik va idoralarda 2018-yilda Jamoatchilik kengashlarining tashkil etilishi davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini oshirish, jamoatchilik nazoratini rivojlantirish hamda davlat tuzilmalari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida barqaror muloqotni shakllantirishga qaratilgan davlat siyosatining muhim elementiga aylandi.

Mushohada

Mustahkam ko'prik

Global iqlim o'zgarishlari, antropogen yuklamalarning ortishi va barqaror rivojlanishga o'tish zarurati kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda fuqarolik jamiyatining faolligi alohida ahamiyatga ega. Chunki jamoatchilik tashabbuslari davlat va aholi o'rtasida muhim ko'prik bo'lib, ekologik madaniyatni shakllantirish va tabiiy resurslarga mas'uliyatni munosabati qaror toptirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashining roli, ayniqsa, ortib bormoqda. Zero, u o'tgan qisqa davrda ochiq muloqotni ta'minlash orqali jamoatchilik fikrining qabul qilinayotgan qarorlarda aks etishida jonbozlik ko'rsatib kelayotgan demokratiya institutiga aylana oldi.

Darhaqiqat, Jamoatchilik kengashi birgina "Ekomaktab" bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasida Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosini to'g'risidagi konvensiya, "Biologik xilmaxillik to'g'risida"gi konvensiya, Bazel konvensiyasi, Ozon qatlaminu buzuvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoli, BMTning iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli konvensiyasining Kioto protokoli va boshqa xalqaro hujjatlar doirasida qabul qilingan ekologik majburiyatlarini bajarishga ko'maklashib kelmoqda. Bundan tashqari, axborot-ma'rifiy va uslubiy ishlarga ham katta e'tibor qaratilib, 20 dan ortiq o'quv va uslubiy

qo'llanmalar nashr etildi, boshlang'ich va o'rta maktab yoshidagi bolalar uchun o'ndan ziyod ekologik adabiyotlar chop qilindi. Maktabgacha ta'lim muassasalar xodimlari uchun boshlang'ich ekologik tarbiya bo'yicha porsial dastur ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

"Ekomaktab" sa'y-harakatlari bilan ekologik ta'limni rivojlantirish, jamoatchilik faolligini oshirish va bioxilmaxillikni saqlashga qaratilgan 50 dan ortiq ekologiyahalar muvaffaqiyatli amal oshirildi.

Institutsional va tashkiliy ko'mak

Jamoatchilik kengashlari faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan davlat organlari tomonidan ko'rsatilayotgan tizimli institutsional va tashkiliy qo'llab-quvvatlash bilan uzviy bog'liq. Shu ma'noda, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi tomonidan Jamoatchilik kengashiga Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) bazasida to'liq va jihatlangan ish kabinetini ajratilib, tahliiliy va ekspert faoliyatini olib borish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilgani diqqatga sazovor. Chunki bu davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, tahliiliy va ekspert faoliyatini olib borish, dolzarb masalalar yuzasidan tekzor majlis va ishchi uchrashuvlar o'tkazishda qo'l kelyapti. Shu bilan birga, qo'mita tashabbusi bilan

nafaqat kengash a'zolari, balki ekofaollarga maxsus adabiyotlar, uslubiy va axborot materiallari muntazam yetkazib berilmoqda. Eng muhimi, kengash a'zolarining barchasi faoliyatida foydalanish uchun planshet qurilmalari bilan ta'minlandi. Bu ma'lumotlarni tekzor olish va tahlil qilish, sayyor tadbirlar natijalarini qayd etish hamda ish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Qo'mita rahbariyati tomonidan Jamoatchilik kengashi a'zolarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratib kelinayapti. Bularning barchasi davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi samarali hamkorlikning yaqqol namunasi sifatida mamlakatimiz ekologik faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va natijadorligi oshishida muhim omil bo'layotir.

Sog'lom muhit kafolati

Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tomonidan 2025-yil kuz-qish mavsumida Toshkent shahrida ekologik holatni tizimli o'rganish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Xususan, kengash a'zolari atmosfera havosi, suv havzalari va shahar muhitining umumiy ekologik holatini joylarga chiqqan holda o'rganishdi.

Monitoring tadbirlari davomida, asosan, Toshkent shahri atrofida joylashgan tumanlardagi ayrim xo'jalik yuritish subyektlariga qarashli issiqxonalarda ekologik talablarga zid yoqilg'i yoqish holatlari aniqlandi hamda tegishli tashkilotlarga taqdimnomalar kiritildi. O'rganish jarayonida daraxtlar kesilishi va yashil hududlar qisqarishi bilan bog'liq holatlar ham e'tibor markazida bo'ldi. Shu asosda ekologik barqarorlikni ta'minlash yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqildi. Havo sifatini yomonlashtirayotgan manbalar belgilanib, profilaktik chora-tadbirlar yuzasidan tavsiylar berildi.

Jamoatchilik kengashi faoliyatining faolligi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni

takomillashtirish jarayonlarida ham ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 3-fevraldagi "Kommunal xo'jaligi tizimida tabiatni muhofaza qilish faoliyatini yaxshilashga qo'r qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida oqova suvlarni qabul qilish qoidalari hamda kommunal-iqtisodiy me'yoriarni takomillashtirish yuzasidan asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

2025-yilda atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun to'lovlarini hisoblash bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish ishlarida ham Jamoatchilik kengashi ekspertlari faol ishtirok etdi. Shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi ishchi guruh tarkibida "Hayvonlarni shaqatsiz munosabatlarda himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish jarayonida ham jonbozlik ko'rsatilmog'chi.

Jamoatchilik nazoratining amaliy samarasi aholi murojaatlariga tekzor munosabatda namoyon bo'lmoqda. Poytaxtimizning Sergeli tumani 7 va 8-dahalari aholisining shu hududdan oqib o'tuvchi kanal sanitar holati bo'yicha murojaati belgilangan tartibda ko'rib chiqilib, mas'ul xizmatlar ishtirokida kanal o'zani va sohil hududi tozalandi. Ushbu holat jamoatchilik nazorati murojaatdan to'natilgacha bo'lgan samarali mexanizm ekanini amalda yana bir bora tasdiqladi. Zero, ekologiya, haqiqatan ham, jamoatchilik ishidir. Buni qalban his etgan bo'y hayotiy va ekologik tajribaga ega tabiat oshuftalari esa ushbu xayriy ishga amaliy mazmun bag'ishlaydi.

Demak, Jamoatchilik kengashi va nazorati - bu faqat kuzatuv emas, balki qonunchilik tashabbuslari, tahliiliy yondashuv va amaliy choralar orqali sog'lom, xavfsiz va barqaror ekologik muhitni ta'minlashga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Eshdavlal SUVONOV, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari, "Qalb ekologiyasi - Ekologiya dushi" NNT raisi.

Futbol

Kongo DR - O'zbekistonning ICHdagi guruhdoshi

Kuni kecha FIFAning 2026-yilgi jahon chempionatida ishtirok etadigan so'nggi 6 ta milliy terma jamoa nomi aniqlandi.

Yevropa hamda qit'alar pley-off saralash bahslaridan keyin Turkiya, Shvetsiya, Bosniya va Gersegovina, Chexiya, Iroq, shuningdek, Kongo Demokratik Respublikasi kuchi 48 talik ro'yxatidan joy oldi.

Biz uchun ahamiyatli bahs Meksikaning Sapanon shahrida kechdi. Kongo DR futbolchilari o'tish o'yinida Yamayka jamoasi bilan uchrashib, asosiy vaqtda 0:0 hisobini qayd etdi. Bellashuvning qo'shimcha bo'lim 100-daqiqasida Aksel Tuanzebe urgan goli evaziga Afrika qit'asi vakillari o'z tarixida ikkinchi bor jahon chempionatida qatnashadigan bo'ldi. Kongo DR mundialning "K" guruhida O'zbekiston, Portugaliya va Kolumbiya terma jamoalari bilan o'ynaydi.

AQSH, Kanada, Meksika yashil maydonlarida kechadigan jahon chempionatining qit'alar kesimi quyidagicha ko'rinish oldi: Yevropa (16 ta jamoa), Afrika (10), Osiyo (9), Janubiy Amerika (6), Shimoliy Amerika (6), Okeaniya (1).

"Xalq so'zi".

Toshkent viloyatidagi Ohangaron davlat o'rmon xo'jaligiga qarashli "O'vjazsoy" uchastkasining 9,2 ming gektar yer maydonida "O'vjazsoy - Moviy tog'lar" milliy tabiat bog'i tashkil etiladi.

Publication information block including contact details for Bosh muharrir O'ktir RAHMATOV, address, phone numbers, and subscription information for "Xalq so'zi" newspaper.